

**NIKOH YOSHINING OILAVIY MUNOSABATLAR BARQORORLIGINI  
TAMINLASHDAGI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.****Abdullayeva Arofatxon Rustamovna***Farg‘ona davlat universiteti**Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada oila mustahkamligini ta‘minlash, uning ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyalashdagi nufuzini oshirishga ko‘maklashish hamda yosh er-xotinlarning moddiy hamda maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash borasidagi mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e‘tirof etilishini haqida ma‘lumotlar bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Oila, omil, muloqot, qadriyat, jamiyat, nikoh, ta‘naviyat, strategiya.*

**Аннотация:** *В статье представлена информация о признании в нашей стране семейно-брачных отношений как ценностей, обеспечивающих прочность семьи, расширяющих возможности реализации ее социальных функций, в частности, способствующих повышению авторитета семьи в воспитании детей, улучшению материально-бытовых условий молодых пар.*

**Ключевые слова:** *Семья, фактор, диалог, ценности, общество, брак, духовность, стратегия.*

**Abstract:** *This article presents information on the recognition of family and marital relations as values in our country in ensuring the strength of the family, expanding the possibilities for implementing its social functions, in particular, helping to increase the authority of the family in raising children, and improving the material and living conditions of young couples.*

**Keywords:** *Family, factor, dialogue, values, society, marriage, spirituality, strategy.*

Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, odamlarning o‘zaro muloqot, munosabatlar doirasi inson ruhiyatida hissiy emotsional o‘zgarishlarni vujudga keltirmoqda va bular oilaviy hayot xarakteriga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. Oilani qadriyat sifatida tavsiflash va uning jamiyat hayotidagi nufuzini ta‘kidlash bilan birgalikda uni mustahkamlovchi omillarning rolini o‘rganish, jumladan, rasman ruxsat etilgan nikoh yoshining yoshlar oilaviy hayotga tayyorligiga, ularning o‘z oilaviy hayotiga ishonch, o‘zaro murakaab munosabatlarga tayyor bo‘lishini ta‘minlovchi ijtimoiy psixologik fazilatlariga ega bo‘lishiga e‘tibor

berish va ushbu omillarni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish katta ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masaladir.

Yangi O‘zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida e‘tibor qaratilib, oilani rivojlantirish masalalari bo‘yicha davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligini yo‘lga qo‘yish, oila ajralishlari bilan bog‘liq salbiy tendentsiyalar va muammolar sabablarini bartaraf etish, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oila farovonligi darajasini oshirish, oilaning tarbiyaviy-ta‘lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda an‘anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, oilalarga ta‘sirchan metodik, konsultativ va amaliy yordam ko‘rsatishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Mazkur chora-tadbirlar ona shaxsining farzandlar kamolotiga ta‘siri, ularning turli oila turlari va shakllaridan qat‘iy nazar barqaror tarbiya muhitini ta‘minlashga xizmat qiluvchi psixologik omillarni aniqlash va ularni turmushida tatbiq qilish vazifasini yuklamoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 1-may 2023-yildagi O‘RQ-837-son “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot-strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli, 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarorlari hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Oilani mustahkamligiga nikohga kiruvchilarning yoshi ham ta‘sir etishini inobatga olib, ushbu kodeksning 15-moddasida “Nikoh yoshini fiziologik, psixologik nuqtai nazardan o‘rganib chiqqan holda yigitlar va qizlar uchun 18 yosh etib belgilangan. Bugungi kunda rasman ruxsat etilgan nikoh yoshi xususida jamoatchilikning fikri o‘rganilmoqda, chunki nikoh yoshi qator omillarga – demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-mafkuraviyga ham bog‘liqlik, bu o‘rinda uning ijtimoiy psixologik mohiyatini ham o‘rganish o‘rinlidir, deb hisoblaymiz.

Zero, mustaqil davlatimizda oilalarning axloqiy, ma’naviy va ruxiy barkamolligini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan say’i-harakatlar kun sayin ortib bormoqda. Hukumatimizning oila mustahkamligini ta’minlash, uning ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyalashdagi nufuzini oshirishga ko’maklashish hamda yosh er-xotinlarning moddiy hamda maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash borasidagi aniq dasturiy tadbirlari mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e’tirof etilishini ta’minlamoqda. Oilaning jamiyat ma’naviyatining poklanishidagi ahamiyati buyuk bo’lib, u asosiy tarbiya o’choqlaridan hisoblanadi.


Ijtimoiy-psixologik adabiyotlarda oila-nikoh munosabatlari, oilaviy turmush masalalari, uning barqarorligini, undagi munosabatlar mustahkamligini hamda farovonligini ta’minlovchi omillar, shuningdek, o’zaro munosabatlarda ziddiyatlarning shakllanishi va oila unda buzilishlarning kelib chiqishi bilan bog’liq muammolarga bag’ishlangan qator ishlar mavjud bo’lib, ularda hozirgi oilaviy turmush uchun qimmatli hayotiy va ilmiy xulosalar keng yoritilgan.

Biz tadqiqot olib borayotgan muammoni asoslash va ilmiy yechimini aniqroq topish maqsadida oila barqarorligini ta’minlovchi omillarning psixologiya fanida bir-birini mazmunan boyitadigan, mantiqiy izchillikka ega izlanishlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.

Tadqiqotimiz tizimini nikoh yoshining oilaviy munosabatlar barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini talqin qilinishi tashkil etadi.

Agar rollar, status va o’zaro hamjihatlik inqirozga yuz tutgan holatda oiladagi psixologik muhitni tasavvur qilishni o’zi murakkabdir. Oilada shaxslararo munosabatlarning o’ziga xos tomonlari uning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Albatta, bu holatni asoslovchi omillarni tadqiq qilishda quyidagicha yo’l tutishni lozim topdik va nikoh yoshining oilaviy munosabatlar barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida yosh oila sohib va sohibalarida nikoh yoshi to’g’risidagi ijtimoiy tasavvurlarini o’rganish maqsadida ijtimoiy psixologik so’rovnomasini (2) o’tkazdik va quyidagi natijalarga erishdik.

Dastlabki savolimiz (1-rasm) respondentlarimizdan necha yoshda oila qurganliklarini so’rashdan iborat bo’lib, unda 30foiz i 17-20 yosh, 45foiz i 21-25 yosh va 25foiz i esa 26-30 yoshda oila qurganliklari haqida bo’ldi.




**1-rasm. “Sizningcha necha yoshdan oila qurgan ma’qul?” savoliga olingan natijalar (n=140)**

Navbatdagi “Sizningcha necha yoshdan oila qurgan ma’qul?”, deb berilgan savolimizga sinaluvchilarimizning 40 foizi “21-24 yosh” ko’rsatkichini, 30 foizi “25 yoshdan keyin”, 12 foizi “18-20 yosh” va 10 foizi “qancha erta bo’lsa, shuncha yaxshi” hamda atiga 8 foizi “o’z fikri”larini bildirganlar. Olingan natijalarga ko’ra, (2-rasm) respondentlarimizning ko’pchiliklari oila qurish uchun eng optimal yosh deb 21-24 yosh ko’rsatkichini belgilaganlar, chunki bu yoshlik davrining eng navqiron davri bo’lishi bilan birga, bu yoshda shaxs hayot yo’lini belgilab olgan va kasbiy faoliyatida izga tushib olgan bo’lishi, shuningdek, ijtimoiylashuv jarayonida o’z o’rnini topa olgan bo’lishi kuzatiladi. Sinaluvchilarimizning eng kam qismi, ya’ni 8 foizi “oilalarni qurishga qachon tayyor bo’lsa”, “muammolarini mustaqil o’zi hal qila olsa” kabi javoblarni va “oilalarni qurish yosh bilan belgilanmaydi” kabi javoblarini aytgan bo’lsalar, 30 yoshdan yuqori javobni hech qaysi respondentimiz belgilamagan. Demak, oilalarni qurish uchun optimal yosh 21-24 yosh bo’lsa-da, “25 yoshdan keyin” degan javobni ham ba’zilar (12 foiz) belgilagan, ammo aksariyat respondentlarning fikrlariga ko’ra, oilalarni 30 yoshga qadar qurilgani maqsadga muvofiqdir. Oilalarni qurish uchun aniq yoshni belgilash har bir insonning shaxsiy holati, jamiyatning an’analari, madaniyati va qonunchilikka bog’liq. Ammo umumiy ravishda, quyidagi jihatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq. Tibbiy nuqtai nazardan, jismoniy va biologik jihatdan to’liq yetilish oilalarni qurish uchun muhim. Bu, odatda, 18 yoshdan keyin kuzatiladi.

Oilaviy hayot mas’uliyat, sabr, muloqot va hamkorlik talab qiladi. Bu qobiliyatlar, odatda, 20 yoshdan keyin shakllanadi. Oilalarni qurishda moddiy barqarorlik ham muhim. Shaxsning ta’limi, ishi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati shakllangan bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko’ra, oilalarni qurish har ikkala jins vakillari uchun

18 yoshdan boshlanadi. Faqat muayyan holatlarda istesno tariqasida yoki sud qarori bilan 17 yoshda ham nikohga ruxsat berilishi mumkin. 21-24 yosh atrofida oila qurish uchun ko'pchilikda jismoniy, psixologik va ijtimoiy tayyorgarlik yetarli darajaga bo'ladi. Ammo bu individual masala bo'lib, har kimning hayotga, munosabatlarga va mas'uliyatga tayyorgarligi turlicha bo'ladi.



**2-rasm. “Sizningcha necha yoshdan oila qurgan ma’qul?” savoliga olingan natijalar. (n=140)**

Oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanishi, u tarbiya o‘chog‘i sifatida shaxsning shakllanishida muttasil ishtirok etadi. Oilaning ijtimoiy ahamiyatiga molik funksiyasini ta’minlanishida undagi ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, subyektlarning kamolot darajasi belgilaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz - "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal 12 2(6)2024 buxpxti.uz Toshkent: "O‘zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlili, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining

kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

4. Арзикулов Д.Н., Гаппаров З.Г. Вахабова Д.Б. Психология ва спорт психологияси жисмоний тарбия институти талабалари учун ўқув қўлланма / Уз.Р. Олий ва урта махсус таълим вазирлиги.-Т.: 2018. 280 б

5. Родионов А.В. Практика психологии спорта. Ташкент, "Lider Press"-2008г.  
6. В.Марищук, Ю.Блудов, В.Плахтиенко, Л.Серова Методики психодиагностики в спорте. М. ФиС, 1990 й.